

## KICHIK SINIF O‘QUVCHILARINING TABAQALASHTIRILGAN JISMONIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUNI

*Boboraximov Sanjar Malikjanovich*  
*Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada kichik sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiyalashda obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olish, shuningdek, hudud omili, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun moddiy-texnik bazaning yetarliligi hamda o‘quvchilarning xususiyatlari, rivojlanish holatini inobatga olish asosida tabaqalashtirilgan ta’limni joriy etish to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy ta’lim, innovatsion dastur, jismoniy tarbiya va sport, sog‘lom turmush tarzi, sensitiv davr, pedagogik tajriba, jismoniy qobiliyat.

Kirish (Введение/Introduction). Hozirgi kunda ta’lim muassasalari oldida turgan muhim masalalardan biri bu umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarining jismoniy faolligini shakllantirish va ularning sog‘lig‘iga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishdir. Ushbu muammolarni turli xil ijtimoiy-pedagogik vositalar va usullar bilan hal qilish mumkin, shu o‘rinda, bolalar va o‘spirinlarning jismoniy faolligini shakllantiradigan yoki to‘sqinlik qiladigan turli xil omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir. «Dunyoda sog‘lomlashtiruvchi ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarning valeologik madaniyatini rivojlantirish, harakatli o‘yinlar vositasida jismoniy sifatlarni shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, sport to‘garaklarini tashkil etishning interaktiv modellarini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarda jismoniy tarbiya va sportga qiziqishni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, sport to‘garaklarini tashkil etishga qo‘yiladigan valeologik va psixo-pedagogik talablarni takomillashtirish, to‘garak mashg‘ulotlarini loyihalash va rejalashtirishning texnologik asoslarini konstruktiv imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, klasterli va genderli yondashuv asosida sport to‘garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, madaniyatshunoslikka doir va kompetensiyaviy yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida o‘quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga kelmoqda»[3:12]. Shunday ekan, o‘quvchilarni sog‘lom turmush tarziga tayyorlashda ommaviy sport sog‘lomlashtirish jarayonining ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Zamonaviy ta'lim vazifalariga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning aqliy va ruhiy barqarorligini oshirishga qaratilgan pedagogik ishlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga egadir. Bugungi kunda mazkur pedagogik jarayonni yangicha metodlar, interfaol usullar asosida olib borish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa o'quvchilarning jismoniy imkoniyatini oshirish, ommaviy sport sog'lomlashtirish jarayoniga tayyorlash, shuningdek, sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ta'limiy vazifalarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Buning uchun, «jismoniy tarbiya va sport sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlarni o'tkazishda xilma-xil jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanish, o'quv amaliy darslarni innovasion pedagogik texnologiyalar asosida izchil tashkil qilish, mashg'ulotlar jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol tatbiq qilish» kerak bo'ladi[4:62].

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyasi bo'yicha innovatsion dasturning maqsadi – yilning iqlimiy mavsumlarini xarakterli xususiyatlarini hisobga olish asosida, mazkur jarayonning mazmunli-texnologik jihatlarini reglamentlovchi dasturiy-normativ xujjatlarni optimallashtirish yo'li bilan kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jismoniy tarbiyasi sifatini yaxshilash hisoblanadi.**

**Asosiy harakatlarni shakllantirish va jismoniy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha dasturning bo'limlari sportning har xil turlari vositalarini, harakatli o'yinlarni va hokazolarni o'z ichiga oladi.**

**Tadqiqotning maqsadlariga mos ravishda protsessul blok quyidagilarni o'z ichiga oladi: jismoniy tarbiya jarayonini yilning iqlimiy mavsumlari xususiyatlarini hisobga olgan holda rejalashtirishga asosiy talablar va metodik yondashuvlarni; yilning iqlimiy mavsumlari xususiyatlarini hisobga olgan holda kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tayyorgarligi jarayonini rejalashtirish xujjatlarini.**

**Rejalashtirish paytida quyidagi asosiy prinsiplar holatlarga rioya qilish kerak:**

**a) rejani ta'lim tizimining boshqaruv organlarini normativ xujjatlarga mosligiga;**

**b) realligi va konkretligiga;**

**v) bolalarning ontogenetik rivojlanishini yoshga oid xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning jismoniy tarbiyasi asoslarini shakllantirishning umumiy tamoyillarini hisobga olinishini;**

**g) asosiy jismoniy sifatlarni majmuaviylikini;**

d) kichik maktab yoshidagi bolalarni yoshi, salomatligi holati va jismoniy tayyorgarligibilan belgilangan ta'lim-tarbiya jarayoni vazifalarini hal qilishni ketma-ketligini va maqsadga muvofiqligini;

ye) jismoniy tarbiya samaradorligini amaliy xarakterini;

j) sport trenirovkasini tuzishning asosiy qonuniyatlarini jismoniy tarbiya vazifalarida qo'llashdan kelib chiqqan holda rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish jarayonida qo'llashdagi modifikatsiyalashni.

Quyidagilarni hisobga olish zarur:

asosiy iqlimiy parametrlar xususiyatlarini va 7-10 yoshli bolalarning alohida jismoniy sifatlarini rivojlanishi darajasiga kalendar yilning har xil iqlimiy mavsumlarida ta'sir qilishi xarakterini;

kichik maktab yoshidagi bolalarning alohida jismoniy sifatlari bilan yilning har xil iqlimiy mavsumlarini xarakterli xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlik xarakterini;

funksional ko'rsatkichlarni yilning mavsumlari parametrlariga bog'liqligini;

kalendar yilning har xil iqlimiy mavsumlarida jismoniy tayyorgarlik va funksional ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni.

Yuqorida bayon qilingan ma'lumotlarning barchasi bizga kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiya jarayonini rejalashtirish xujjatlarini ishlab chiqish va tuzishni boshlashga imkon berdi. Ularning asosiga jismoniy sifatlarni rivojlanishini sensitivligi to'g'risidagi umumiy qabul qilingan tushunchalardan tashqari yilning har xil iqlimiy mavsumlarini hududiy xususiyatlari kiritildi.

Xulosa qilganda, kichik sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiyalashda obyektiv va subyektiv omillarni hisobga olish, shuningdek, hudud omili, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun moddiy-texnik bazaning yetarliligi hamda o'quvchilarning xususiyatlari, rivojlanish holatini inobatga olish asosida tabaqalashtirish ta'lim sifati uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar ro'yxati: (references)

1. Usmanxodjayev T.S., Meliyev X., Nuriddinova M., Olimov A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent-Chirchiq, 2019. – 159 b.
2. Xakimov X.N. Umumta'lim maktablarida jismoniy va ma'naviy-axloqiy tarbiya integratsiyalashuvining pedagogik shart-sharoitlari. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand.: SamDU. 2020. – B. 12.

3. Xamroyev S.S. Sport to'garaklari orqali o'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (RhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand.: SamDU. – B. 12.
4. Zayniddinov T.B. Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining pedagogik faoliyati // Jismoniy tarbiya va salomatlik. Ilmiy jurnal. 2019, 2(75). – B. 62.